

3. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-таърих. Пол ный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова (до полнения к переводу, примечаниям и коммента риям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина). Ташкент: Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. 595 с.
4. Рашид ад-Дин. Сборник летописей: в 3 т. / Пер.: А.К. Арендс, Ю.П. Верховский, О.И. Смирнова. Л.А. Хетагуров. М., 2002. Кн. 1-2.2-3

## **Ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion faoliyat.**

Qoraqolpoq Davlat Universiteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Madaminova Sarvinoz Sa'dulla qizi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni va ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, innovatsion texnologiyalar, sifat va samaradorlik, pedagogik innovatsiya, innovatsion faoliyat.*

Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari darajasiga chiqarish masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetentsiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi.

Pedagogik innovatsiya-bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifat jihatidan o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir.

Uzluksiz ta'lim tizimida har tomonlama yetuk, ijodkor shaxsni tarbiyalash, o'quvchini uzluksiz rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini ta'minlashni taqozo etadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida shaxsning rivojlanishi uzluksiz jarayon sifatida qaralib, unda o'quv jarayonining faqat bilish emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy talqin qilishni nazarda tutuvchi rivojlaniruvchi ta'lim g'oyalari bilan uyg'unlashgan. Bu esa ta'lim tizimining axborotli o'qitishdan produktiv ta'limga, xotiraga asoslangan ta'limdan faol o'zlashtirishga asoslangan ta'limga o'tilishini belgilab berdi.

Ta'limning uzviyligi-ta'lim mazmunining tizimliliği, izchilligi va mantiqan bog'liqligi ta'minlanishi, o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarining keyingi bosqichlarda ko'nikma va malakalarga o'tishiga tayyorlashi, ta'limning har bir bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlashni talab qiluvchi printsipdir. Uzviylikning mohiyati vaqt bo'yicha individuallashtirilgan, har bir shaxsga o'ziga mos bilim olish sharoitlarini yaratib bera oladigan ta'limga bo'lgan shaxs va jamiyatning ehtiyojlarini qoniqtirish zarurati bilan belgilanadi.

Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida paydo bo'layotgan “Innovatsion yondashuv”, “Innovatsion faoliyat”, “Innovatsion pedagogika” tarzdagi tushunchalar ehtiyojlar asosida kelib chiqqan bo'lib, ularning maqsadi ta'lim sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, yangilanishlar kiritishdan iborat.[1, 23]

“Innovatsiya” (inglizcha “innovation”) - yangilik kiritish, tatbiq etish, qo'llash degan ma'nolarni bildiradi. “Innovatsiya” tushunchasi dastlab XIX asrda madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda paydo bo'lib, bir madaniyat turlarini ikkinchi bir madaniyatga kiritish tushunilgan. XX asrga kelib esa, yangi soha-yangiliklar kiritish haqidagi fan paydo bo'ldi. Bu fan doirasida moddiy ishlab chiqarish sohasiga texnik yangiliklar kiritish qonuniyatları o'rganila boshlandi.

Yangiliklar kiritish haqidagi fan faoliyatida yangicha ta'lim tizimiga o'tish yo'lidagi harakatlar bilan asoslanadi. Shunga ko'ra yangi bilimlarga ehtiyoj, yangilik innovatsiya, innovatsion xizmat ko'rsatish g'oyalalarini tatbiq etishga qaratilgan ehtiyojdan kelib chiqqan.

O'zbekiston tatbiq etish ta'lim tizimini isloh qilish masalalari bilan bog'liq ravishda tayyor axborotlarni berishga asoslangan an'anaviy o'qitish turidan, innovatsiyalarni o'rganish, uni ta'lim jarayoniga talabalarning izlanishga, ma'lumotlarni o'zlari izlab topishga o'rgatadigan jarayonlar kabi tushunchalar mohiyatini anglashga ehtiyoj kuchayadi.

“Yangilik kiritish” (innovatsiya) tushunchasi yangiliklarda ham, ushu yangilikni amaliyatga tatbiq etish jarayoni sifatida ham tushuniladi.

O'zbekistonlik olimlardan N.Saidahmedov, N.Azizzo'jaeva, Sh.Shodmonov, G.Baubekova, G.Xalikova, va boshqalar pedagogik yangi-lanishlarga ilg'or tajribaning xususiy shakli tarzida qaraydi.[2, 37] Ularni radikal yangiliklar bilan tenglashtirib, quyidagilar bilan bog'lab tushuntiradi: dolzarb muammoning yangi yechimi, ulardan foydalanish yangi sifat o'zgarishlariga olib keladi, ularni qo'llash tizimdagи boshqa komponentlarni ham sifat jihatidan o'zgartiradi. Bunda yangilanishlar tizimining bir sifatli holatdan ikkinchi holatga o'tishi tarzida tushuniladi.

Innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Funktsional imkoniyatlariga qarab, barcha pedagogik innovatsiyalar: yangiliklar samarali ta'lim jarayonini ta'minlaydigan shartlar (ta'limning yangi mazmuni, innovatsion ta'lim muhitlari, ijtimoiymadaniy sharoitlar); yangilik-pedagogik vosita, texnologik ta'lim loyihalari va hokazo; tashkiliy boshqaruvga oid yangiliklar (ta'limning sifatli xizmat qilishini ta'min-laydigan yechimlar).
2. Innovatsiyalarni amalga oshirish va tatbiq etish sohasiga qarab: ta'lim mazmunida; o'qitish texnologiyalari, ta'lim tizimining tarbiyaviy sohasida; pedagogik jarayon qatnashchilari o'zaro ta'siri tizimida, pedagogik vositalar tizimida.

Tizimli innovatsiyalar-bu muayyan muammo doirasidan kelib chiqadigan, aniq maqsad, vazifalarga ega innovatsiyalardir. Bular o'qituvchi va talabalar qiziqishlari asosida tuzilib, uzyiylik xarakteriga ega bo'ladi. Bunday innovatsiyalar puxta tayyorlanib, ekspertlardan o'tadi va zarur vositalar bilan ta'minlanadi (kadrlar, moddiy, ilmiy-metodik ta'minot).[3, 20]

Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar ikki turga bo'linadi:

1. Stixiyali ravishda amalga oshadigan innovatsiyalar. Innovatsion jarayonni amalga oshirish shartlari, vosita va yo'llari tuzilishini to'liq anglamagan yoki uni tug'dirgan ehtiyojga bog'lanmagan holda amalga oshiriladi. Bu tarzdagi innovatsiyalar ko'pincha ilmiy asoslar bilan bog'liq bo'lmay, empirik asosda vaziyat talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunday innovatsiyalarga novator o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar faoliyatlarini misol keltirish mumkin.
2. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar ongli, maqsadga yo'naltirilgan, ilmiy ishlab chiqilgan fanlararo faoliyat natijasi hisoblanadi. Ta'lim sohasidagi innovatsiya ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, usul va shakllari, pedagogik jarayonni tashkil etishda yangiliklar kiritishni nazarda tutadi. Innovatsion jarayon bir necha bosqich va

vositalar yig'ini yordamida ilmiy yangilik yoki g'oya, ijtimoiy yangilikka, shu qatorda ta'lif yangiligidagi aylanadi. Bunda yangilik kiritishga innovatsiya natijasi sifatida.

Innovatsion pedagogik jarayonning eng muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo'nalish o'quvchi-talabalarning o'quv jarayonin faollashtirishni, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Demak talabalarning innovatsion faoliyatini yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat sifatida baholash mumkin. Innovatsion faoliyatga aksilogik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, u tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar yig'indisini anglatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Маллаев О. Янги педагогик технологиялар. Т. 2000.
2. Farberman. L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. –Т.: 2000., Azizzodjaev N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Т.: 2006.
3. Н.Эркабоева. Янгиланган фикрларнинг моҳияти ва унинг устувор йўналишлари. // Халқ таълими, 2005 йил, 6-сон, 19-20 бетлар.

## ALLERGIYA DORI VOSITALARINING 2020-2024 YILLARDA ISHLATILISH TAHLILI

**S.J.Muxammadova, M.Mamadaliyev**

e-mail: sabohatmuhammatova7@mail.com

tel: +998940429426

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

**KIRISH.** Ma'lumki, iqlimning o'zgarishi aholi orasida turli xil allergik holatlar va kasalliklar rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Allergiya bilan asosan qaysi a'zo ko'proq zararlanganiga qarab, kasallik har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Allergiya kasalligini kuzatilishi, misol uchun: ko'zni allergik zararlanishi – bu allergik konyuktivit; burun shilliq pardasini allergik zararlanishi – allergik tumov, rinit; broxlarni allergik zararlanishi – bronxial astma; terini allergik zararlanishi – allergic dermatet, eshak yemi ko'rinishida kechadi. Allergiya kasalligini namoyon bo'lishi inson xayotini ancha qiyinlashtiradi. Allergiya borligiga shubha qilinganda atrof muxitda bo'lishi mumkin bo'lgan allerginlarni, insonda belgilari yuzaga kelish vaqtida.